



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ASOSIY ISHLAB CHIQRISH FONDLARINING TAKROR ISHLAB CHIQRISHNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI

Saidrasulova Xolida Bekpulatovna

Geologiya fanlari universiteti, "Iqtisodiy geologiya" kafedrası mudiri, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD
E-mail:xsaidrasulova@list.ru

ARTICLE INFORMATION	ABSTRACT
Volume: 1 Issue: 5 DOI: https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1_iss5/a12	Maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalari asosiy fondlardan foydalanishning ahamiyati va sanoat korxonalarida ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish asosida takror ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning nazariy asoslarini tadqiq qilish dolzarbligi haqida fikr yuritilgan. Shu jihatdan dastlab, asosiy ishlab chiqarish fondlarini takror ishlab chiqarishning nazariy asoslarini o'rganish va bu borada olib borilgan tadqiqotlarni ahamiyatini oshirishga qaratilgan.
KEYWORDS	<i>asosiy fondlar, takror ishlab chiqarish, sanoat korxonalari, samaradorlik, kapital mablag'lar, amortizatsiya ajratmalari.</i>

Kirish

Dunyo davlatlari iqtisodiyotini jadal rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar natijasida rivojlangan davlatlar iqtisodiyotida shiddatli raqobat muhiti avj oldi. Bunda esa sanoat tarmoqlari rivojining o'ziga xos o'rni va ahamiyati bor desak mubolag'a qilmaymiz. Xususan, jahon iqtisodiy rivojlanishida sanoat ishlab chiqarishi yuqori bo'lgan davlatlar iqtisodiy taraqqiyotining asosiy omili bo'lgan sanoat tarmoqlaridagi tuzilmaviy o'zgarishlar, asosiy ishlab chiqarish fondlaridan samarali foydalanish bilan bog'liqligiga asoslanadi.

Bugungi kunda sanoat tarmoqlarining rivojida asosiy ishlab chiqarish fondlaridan samarali foydalanish asosida daromad hajmini oshirish muhim ahamiyatga ega bo'lib, xususan bu borada "sanoat ishlab chiqarishida asosiy fondlardan samarali foydalanish va uni boshqarishning dasturiy ta'minoti jahon bozorida 2020 yilda 3 milliard AQSh dollaridan 2024 yilda 5,2 milliard AQSh dollarigacha o'sishi prognoz qilinmoqda".

Asosiy fondlarni boshqarish dasturi texnik xizmat ko'rsatish jarayonlarini soddalashtirishda, ishlab chiqarishdagi mavjud asosiy fondlarning uzoq muddat foydalanish va samaradorlikni oshirish uchun xizmat qiladi. O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar va tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda ishlab chiqarishni texnik va texnologik modernizatsiyalash hisobidan energetika resurslariga bo'lgan ehtiyojni to'liq qondirish, yuqori samaradorlikka erishish, asosiy ishlab chiqarish fondlari energiya sig'imini kamaytirish va tejankor texnologiyalarni joriy etish orqali ta'minlash zarurligi ko'rsatib o'tilgan.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida asosiy ishlab chiqarish fondlaridan takror ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning nazariy va uslubiy asoslarini tadqiq qilish dolzarb ahamiyatga ega. Iqtisodiyotning barcha sohalarida asosiy fondlardan samarali foydalanish muammosi butun dunyo olimlarini qiziqitirgan va o'z yechimini kutayotgan masalalardan biri sifatida e'tirof etish joizdir. Shu jihatdan dastlab, asosiy ishlab chiqarish fondlarini takror ishlab chiqarishning nazariy asoslarini o'rganish va bu borada olib borilgan tadqiqotlarni tadqiq qilish asosida ishtiobli taklif va tavsiyalar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar sharhi

Sanoat korxonalari ishlab chiqarishida asosiy fondlardan foydalanish borasida MDH olimlari ham sohaga doir tadqiqotlar olib borishgan. Xususan, rus tadqiqotchilaridan A.S.Sidorov o'zining ilmiy tadqiqotida korxonalarda asosiy fondlardan foydalanishni rejalashtirishning tashkiliy-iqtisodiy tomonlariga alohida urg'u bergan holda quyidagi fikrlarni, ya'ni, asosiy fondlarni rejalashtirishda ulardan foydalanish va rivojlanish rejasini tuzish, uning tarkibiy tuzilishini rejalashtirish bilan cheklanadi hamda korxonaning iqtisodiy faoliyat ko'lamini va turiga bog'liq deb ta'kidlaydi. Asosiy fondlarni rejalashtirish o'z-o'zidan tugamasligi, korxonalarining umumiy rejalashtirish tizimining ajralmas qismi hisoblanishi kerakligini asoslab bergan.

Ye.A.Orlova ham o'z tadqiqotlarida asosiy muammolaridan biri sifatida davlat muassasalariga xarid qilinadigan asosiy fondlarga sarflanayotgan mablag'larni nazorat qiluvchi organlar tomonidan davlat mablag'larini sarflash samaradorligi bilan bog'liq masalalarni emas, balki mablag'larni sarflash ko'lamini va tartiblarini tekshirib chiqishlari hamda bu borada auditorlik tashkilotlarining ishiga ko'proq e'tibor berish kerakligi ta'kidlab o'tilgan.

A.A.Gulamov ham bevosita "asosiy fondlardan samarali foydalanish borasida tadqiqotlar olib borgan bo'lib, o'zining tadqiqotlarida Temir yo'l kompaniyalarining ishlab chiqarishda iqtisodiy salohiyatni belgilab berishda asosiy fondlar zarur resurs manbasi ekanligini ta'kidlab o'tgan. Shuningdek, asosiy fondlardan samarali foydalanish asosida mehnat resurslarini to'g'ri taqsimlanishiga hamda ishlab chiqarishning barqarorligini ta'minlashga va transport xarajatlarini kamaytirishga asosiy sabab bo'lishi" ta'kidlab o'tilgan.

Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan takror ishlab chiqarish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borgan Ye.A.Panova ham quyidagi fikrlarni "Asosiy fondlarni takror ishlab chiqarish deganda ularni ma'naviy va jismoniy eskirishi bilan oq yangilanishi tushuniladi. Takror ishlab chiqarish to'plangan amortizatsiya doirasida amalga oshirilsa, u holda uni oddiy deb hisoblash mumkin; kengaytirilgan takror ishlab chiqarish qo'shimcha moliyaviy manbalarni jalb qilish hisobiga yangi asosiy fondlarni tashkil etishni o'z ichiga oladi" degan fikrni ilgari surgan.

Tahlil va natijalar

Iqtisodiyot sohasining ustuvor darajada rivojlantirish borasida tadqiqotlar olib borayotgan mamlakatimiz olimlaridan B.A.Abdukarimov va boshqalar tomonidan tayyorlangan darsligida asosiy fondlar tushunchasi quyidagicha yondashilgan ya'ni, "asosiy fondlar – korxonalarning iqtisodiy faoliyatida uzoq muddatli mahsulotlarni tayyorlash, jarayonlarni tashkil etish yoki xizmatlarni ko'rsatish, shuningdek, ma'muriy va ijtimoiy-madaniy funksiyalarni bajarish uchun ishlatiladigan moddiy aktivlardir".


Asosiy fondlar – bu o'z qiymatga ega va xizmat muddati davomida korxonaga daromad keltiradigan moddiy aktivlardir". Shuningdek, mahalliy olimlarimizdan M.Yu.Isakov ham o'z tadqiqotlarida asosiy vosita (fond) tushunchasini o'zining nazariy asoslari asosida ilgari surgan, ya'ni "asosiy vosita(fond)lar korxona ishlab chiqarish vositalarining bir qismi bo'lib, ishlab chiqarish jarayonida uzoq vaqt ishtirok etadi va o'zining natural-moddiy holatini yo'qotmaydi hamda o'z qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotlarga qismlab o'tkazib beradi".

Asosiy vositalar qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotga o'tkazish jarayoni amortizatsiya deb ushbu jarayonda to'plangan mablag'lar esa amortizatsiya ajratmalari deb ataladi".

O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining Milliy standarti "Asosiy vositalar"ni tasdiqlash to'g'risidagi 5-son BHMSda "Asosiy vositalar(fondlar) - korxona tomonidan uzoq muddat davomida xo'jalik faoliyatini yuritishda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida yoxud ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish maqsadida foydalanish uchun tutib turiladigan moddiy aktivlardir" deb ta'rif berilgan.

Darhaqiqat, yuqorida keltirilgan izohlarga ko'ra, mualliflik qarashlarini ilgari suradigan bo'lsak, bugungi kunda asosiy fondlar ma'lum bir turdagi ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish maqsadida sotib olinib, asosiy fondlar ishlab chiqarishda uzoq muddat ishtirok etgan holda o'zining tovar qiymatini yaratilayotgan mahsulotga bosqichma-bosqich o'tkazib borishi bilan belgilanadi. Qachonki, asosiy fondlar orqali yaratilgan mahsulot va xizmatlarni yaratish natijasida kelib tushgan pul mablag'lari sotib olingan asosiy fondlarga sarflangan xarajatlarni qoplashi bilan birga shuningdek, asosiy vositalarni qayta tiklash maqsadida ham amortizatsiya ajratmalari ajratib borilishi bilan belgilanadi. Agar shu jarayon yangidan kengaytirilgan ko'lamda takrorlansa kengaytirilgan takror ishlab chiqarish deyiladi. Har qanday korxonaning asosiy fondlarini takror ishlab chiqarish jarayoni bir-biri bilan chambarchas bog'langan to'rtta muhim bosqichni o'z ichiga oladi (1-rasm).

Asosiy fondlarni takror ishlab chiqarishning boshlang'ich bosqichida ma'lum bir qiymatga va aniq sifat xususiyatlariga ega bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan, texnologik jarayonga mos keladigan uskunalarini sotib olish ishlari amalga oshiriladi. Takror ishlab chiqarishning oddiy va kengaytirilgan turlari mavjud. Oddiy takror ishlab chiqarish mahsulotni uzluksiz takror ishlab chiqarish va o'zgarmas hajmda ishlab chiqarishga kiritilgan kapital miqdoridir.



1-rasm. Asosiy fondlarni takror ishlab chiqarish jarayonlari tuzilmasi¹³


Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish yoki iqtisodiy o'sish, ishlab chiqariladigan mahsulot miqdorining foyda hisobiga uzluksiz ravishda ko'payishini anglatadi. Olingan daromad iste'mol va jamg'arishga bo'linadi. Olingan daromadning bir qismi shaxsiy iste'molga sarflanadi, bir qismi jamg'arish fondiga yo'naltiriladi va aynan u kengaytirilgan takror ishlab chiqarishga sarflanadi.

Korxona jamg'armalari miqdori yuqorida aytib o'tilganidek, ishlab chiqariladigan mahsulot birligining tannarxini pasaytirishga xizmat qiladigan ishlab chiqarish vositalari qiymati arzonlashganda yanada o'sadi. Takror ishlab chiqarish mikro va makroiqtisodiy darajada amalga oshiriladi (1-jadval). Bu darajalarda takror ishlab chiqarishning umumiy jihatlari iqtisodiy munosabatlarni yaxshilash, ishlab chiqarish resurslari va samarali ishchi kuchidan foydalanishda o'z ifodasini topadi.

1-jadval
Korxonada asosiy fondlarning takror ishlab chiqarishga ta'sir qiluvchi omillari¹³

Mikroiqtisodiy omillar	Makroiqtisodiy omillar
> Korxonaning iqtisodiy faoliyati turi va uning tegishli sohasi; > korxonaning ishlab chiqarish hajmi; > takror ishlab chiqarish faoliyatini moliyalashtirish uchun investitsion manbalarning mavjudligi va yetariligi; > korxonaning amortizatsion siyosati; > ishlab chiqarishning resurs hajmini, asosiy fondlarning holati va foydalanish samaradorligini, shuningdek ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifatini o'z ichiga olgan ishlab chiqarishning texnologik darajasi; > kadrlar tarkibining barqarorligi va professionaligi; > shartnoma tuzuvchi sheriklarni tanlashda ehtiyojkorlik.	> Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy, soliqqa oid va amortizatsion siyosati; > mamlakat va hududdagi investitsion muhit va barqarorlik; > ma'muriy, huquqiy va iqtisodiy to'siqlarni mavjudligi; > investitsion kreditlashning narxi va hammabopligi; > uskunani yetkazib berish sharoiti; > raqobat muhiti; > bozorda sifatli xomashyo va materiallarni mavjudligi va ularga qo'yilgan narxning darajasi; > aholining xarid qilish qobiliyati; > yer resurslarining cheklanganligi; > tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish.

Sanoat korxonalarida yaratilayotgan iste'mol mahsuloti ishlab chiqarishni tashkil qilish maqsadida kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun zarur hajmda foyda olish lozim. Takror ishlab chiqarish quyidagi jarayonlarning o'zaro aloqalarini ifodalaydi (2-rasm). Ta'kidlash joizki, mikro va makroiqtisodiy darajada takror ishlab chiqarish jiddiy farqlarga ega.



2-rasm. Takror ishlab chiqarish jarayonlari tasnifi¹⁴

Makroiqtisodiy darajada takror ishlab chiqarish ishlab chiqarish vositalari, xom-ashyo resurslari va ishchi kuchini qo'llagan holda amalga oshiriladi, makroiqtisodiy darajada kapital, yer va inson resurslari kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni amalga oshirish manbasi hisoblanadi.

Makroiqtisodiy darajada takror ishlab chiqarishga xos bo'lgan xususiyat qiymat jihati hisoblanadi – pul foyda keltirishi kerak; makroiqtisodiy darajada – o'sib borayotgan ijtimoiy ehtiyojni qondirish – daromadlarning o'sishi asosiy xususiyat hisoblanadi.

Makroiqtisodiy darajada yalpi mahsulotni takror ishlab chiqarishda moddiy xarajatlardan foydalanish darajasi katta rol o'ynaydi. Moddiy xarajatlar qanchalik kichik bo'lsa, ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot shunchalik ko'p bo'ladi.

Ishlab chiqarishning moddiy xarajatlari asosiy ishlab chiqarish fondlari va aylanma fondlar xarajatlari iboratdir. Natural ko'rinishda aylanma fondlar strukturasi ishlab chiqarish yo'nalishtlariga bog'liq va xarajatlar ko'rinishida o'z qiymatini bir ishlab chiqarish sikli davomida yangi ishlab chiqarilgan mahsulotga o'tkazadi. Ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatidan moddiy xarajatlarni chiqarib tashlashda korxona xodimlari tomonidan yaratilgan sof mahsulot yoki mahsulot qiymati qoladi.

Ta'kidlash joizki, xorijiy mamlakatlar olimlari orasida sof mahsulotni aniqlash borasida turli fikrlar mavjud. G'arbiy Yevropa mamlakatlari olimlari "sof mahsulot" ni "qo'shilgan qiymat" deb, rossiyalik olimlar esa "yalpi daromad" deb hisoblaydi.

O'ylaymizki, respublikamiz jahon iqtisodiy hamjamiyatiga siyosiy va iqtisodiy jihatda suveren mamlakat sifatida kirib kelmoqda va shu sababli yangi yaratilgan sof mahsulotni qo'shilgan qiymat deb hisoblash maqsadga muvofiq bo'ladi. Qo'shilgan qiymat, jonli mehnat xarajatlarini o'zida mujassam etgan holda, ish haqi ko'rinishida ishchi kuchini qayta tiklash va qayta ishlab chiqarishga yo'naltiriladigan zarur mahsulot hosil qiladi.

Qo'shilgan qiymatning bir qismi, zarur mahsulot miqdoridan ortiq bo'lgan qo'shimcha mahsulot shakli sifatida, firmaning foydasi hisoblanadi va uning faoliyatini rivojlantirishga, shuningdek, davlat byudjetiga soliq to'lovlariga va ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarga sarflanadi.

O'ylaymizki, ishlab chiqarilgan sof mahsulotni zaruriy va qo'shimcha mahsulotga bo'lish to'g'ri hisoblanadi, chunki bunday bo'lish ushbu mahsulotning qaysi qismidan ishlab chiqarish sohasida band bo'lganlar foydalanishi va qaysi bir qismi ishlab chiqaruvchilarning va butun jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlariga sarflanishini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilish mumkinki, korxona foydasi faoliyatning asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi va u faqat ishlab chiqarish xarajatlari korxonalar yalpi mahsuloti qiymatidan past bo'lgan holatdagina shakllanishi mumkin. Shu sababli, foydaga ishlab chiqarishning asosiy maqsadi sifatida quyidagicha ta'rif berish mumkin: foyda iqtisodiy toifa sifatida ishlab chiqarilgan mahsulotning ishlab chiqarish xarajatlardan ortiq bo'lishi hisobiga hosil bo'ladi.

Zamonaviy iqtisodiyot fani yillik ijtimoiy mahsulot sifatida bozor narxlarida ifodalangan yakuniy tovarlar va xizmatlar yig'indisini

belgilaydi va oraliq mahsulotda mujassam topgan tovarlar takroriy hisobini istisno qiladi. Bunda yalpi ijtimoiy mahsulot strukturasini to'rtta asosiy elementni o'z ichiga oladi:

- foydalanish xarajatlari, ya'ni asosiy fondlar xarid qilish, ularga qarash va yaxshilashga barcha yillik moddiy xarajatlar turlari, shuningdek, moddiy aylanma vositalar, tugallanmagan ishlab chiqarish va nomoddiy aktivlar xarajatlari;
- ishlab chiqarish omillaridan foydalanish uchun to'lanadigan ishlab chiqarish omilli xarajatlari (ish haqi, foiz, renta) ni;
- ma'naviy eskirish natijasida kapitalning qadrsizlanishi natijasi sifatida qo'shimcha xarajatlarni;
- tadbirkorlarning daromadlari, ya'ni foydasi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 29 dekabr. Toshkent.
2. А.С.Сидоров. Организационно-экономические аспекты планирования основных средств предприятия. Автореферат на соискание ученой степени к.э.н. Белгород: 2011. 30 с.
3. Е.А.Орлова. Контроль и аудит основных средств в государственных образовательных учреждениях. Автореферат на соискание ученой степени к.э.н. -М.:2011. 34 с.
4. А.А.Гуламов. Экономическая оценка воспроизводства основных фондов железнодорожной компании. Автореферат на соискание ученой степени к.э.н. СПб.: 2011 г. 28 стр.
5. Е.А.Панова. Устойчивое финансирование воспроизводства основных фондов промышленных предприятий. Автореферат на соискание ученой степени к.э.н. М.:2016 г. 32 стр.
6. М.Ю.Исаков. "Корхона иқтисодиёти". Ўқув қўлланма.– Т.: "Иқтисодиёт", 2017. 278 б.
7. Ўзбекистон Республикаси Бухгалтерия ҳисобининг Миллий стандарти "Асосий воситалар" ни тасдиқлаш тўғрисидаги 5-сонли БҲМС.:Т.-2003, 114-сон.
8. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т-харфи. Солнома-Тўйтепа. Таҳрир Хайъати: Азизхўжаев А., Аминов М., Даминов Т. ва б. Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, www.ziyouz.com кутубхонаси. 2004. 56-б.
9. Е.А.Панова. Устойчивое финансирование воспроизводства основных фондов промышленных предприятий. Автореферат на соискание ученой степени к.э.н. -М.:2016 г. 32 с.
10. <https://www.statista.com/statistics/1092026/fixed-asset-management-software-market/>
11. <https://www.statista.com/statistics/1092026/fixed-asset-management-software-market/>
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 29 dekabr. Toshkent.
13. А.С.Сидоров. Организационно-экономические аспекты планирования основных средств предприятия. Автореферат на соискание ученой степени к.э.н. Белгород: 2011. 30 с.
14. Е.А.Орлова. Контроль и аудит основных средств в государственных образовательных учреждениях. Автореферат на соискание ученой степени к.э.н. -М.:2011. 34 с.
15. А.А.Гуламов. Экономическая оценка воспроизводства основных фондов железнодорожной компании. Автореферат на соискание ученой степени к.э.н. СПб.: 2011 г. 28 стр.
16. Е.А.Панова. Устойчивое финансирование воспроизводства основных фондов промышленных предприятий. Автореферат на соискание ученой степени к.э.н. М.:2016 г. 32 стр.
17. Б.А.Абдукаримов ва бошқалар, "Корхона иқтисодиёти". Дарслик-2-қайта ишланган ва тўлдирилган нашри. – Т.: "Фан", 2012 - 371-б.
18. Б.А.Абдукаримов ва бошқалар, "Корхона иқтисодиёти". Дарслик-2-қайта ишланган ва тўлдирилган нашри. – Т.: "Фан", 2012 – 371-б.
19. М.Ю.Исаков. "Корхона иқтисодиёти". Ўқув қўлланма.– Т.: "Иқтисодиёт", 2017. 278 –б.
20. Ўзбекистон Республикаси Бухгалтерия ҳисобининг Миллий стандарти "Асосий воситалар" ни тасдиқлаш тўғрисидаги 5-сонли БҲМС.:Т.-2003, 114-сон.
21. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т-харфи. Солнома-Тўйтепа. Таҳрир Хайъати: Азизхўжаев А., Аминов М., Даминов Т. ва б. Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, www.ziyouz.com кутубхонаси. 2004. 56-б.
22. Muallifning ilmiy-tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.
23. Е.А.Панова. Устойчивое финансирование воспроизводства основных фондов промышленных предприятий. Автореферат на соискание ученой степени к.э.н. -М.:2016 г. 32 с.
24. Muallifning ilmiy-tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan...